

“SHAMSHIRBOZ” ERTAGIDA QO‘LLANILGAN MILLIY  
FRAZELOGIZMLAR TARJIMASI BORASIDA AYRIM  
MULOHAZALAR

**Dilrabo Igamuratova**

*katta ilmiy xodim*

*O‘zR FA O‘zbek tili, adabiyoti  
va folklori instituti*

***Annotatsiya:** ushbu maqolada A.Shukurovdan yozib olingan “Shamshirboz” ertagining M.Abdurahimov tomonidan rus tiliga amalga oshirilgan tarjimasi tahlil qilinadi. Ertakni boshqa ertaklar bilan o‘xshash syujetlari, tarjimonning mahorati, o‘zbek tilida qo‘llanilgan iboralarni rus tilida berilishi, sintaktik transformatsiya usuli haqida so‘z yuritiladi.*

***Kalit so‘zlar:** Shamshirboz, ertak, ertakchi, tarjima, tarjimon, sintaktik transformatsiya.*

O‘zbek xalq ertagi “Shamshirboz” 1957-yil Kashqadaryo viloyati Kitob shahrida istiqomat qilgan Abdug‘ofur Shukurovdan folklophunos olimi Zubayda Husainova tomonidan yozib olingan. 37 betdan iborat bo‘lgan ushbu ertak qo‘lyozmasi O‘zR FA O‘zbek tili, adabiyoti va folklori instituti arxivida №1316 inventar raqami ostida saqlanib kelinmoqda. “Shamshirboz” ertagi o‘zbek tilidan “Шамширбоз и его волшебный меч” nomi ostida rus tiliga M.Abduraximov tomonidan mohirona tarjima qilingan bo‘lib, 1987-yilda “Жемчужное ожерелье” [Жемчужное ожерелье, 3:335] to‘plamida chop etilgan. Shuningdek Kalmikiya universiteti tomonidan 2023 yil “Сказки народов Евразии” [Сказки народов Евразии, 8:312] to‘plamidagi uchinchi “Змееборство” kitobida o‘zbek tilidagi asliyati va rus tilidagi tarjimasi nashr qilingan.

“Shamshirboz” o‘zbek xalq ertagi uch qismli ertaklar sirasiga kiradi. Ertakdagi syujet voqealari zanjirsimon xarakterga ega bo‘lib, ular mantiqan bir-biriga ulanib ketadi. Ertakning syujeti ana’naviy o‘zbek ertaklariga xos uch aka-ukaning g‘aroyib sarguzashtlari fonida rivojlana boradi. Ertakdagi voqealar o‘zbek xalq ertagi “Uch og‘a-ini botirlar” ertagini eslatadi, biroq voqealar rivoji va ertakdan chiqadigan didaktik xulosa farq qiladi.

Bir podsho saroyida umr bo‘yi xizmat qilgan kambag‘al odam bo‘lib, uning uch o‘g‘li bor edi. Kattasining ismi Yulduzboz, o‘rtanchasi Obboz, kenjasi Shamshirboz bo‘lib, shu tipdagi ertaklarga xos bu yigitlar ham baxt va tole’ izlab yo‘lga otlanishadi, biroq voqealar rivojida aka-ukalar ota nasihatiga amal qilmay o‘z bilganicha ish qilishadi. Ya’ni birinchi kecha ota tayinlagandek mozorotda emas, masjidida tunashadi. Biroq aqlda akalaridan farq qiladigan kenja o‘g‘il Shamshirboz ota nasixatiga amal qilishni aytadi, akalar uni urishib beradi hamda o‘zlari bilganicha ish tutadi. Kenja o‘g‘il ota so‘zi bejiz emasligini anglaydi va tunni bedor o‘tkazadi. Shamshirboz shu erda yashaydigan yalmog‘iz va yalmog‘izvachchalarni o‘ldirib, o‘zi va akalarini xavfdan qutqaradi va akalari uchun yalmog‘izning taomidan ham

olib keladi. Ikkinchi tunda otasi o‘g‘illariga ochiq dalada tunashi kerakligini aytgan edi, yana akalar o‘z bilganidan qolmaydi gulzorda tunashni ma’qul ko‘rishadi. Aka-uka tunagan joy ajdarning makoni bo‘lib, ular qattiq uyquga ketgach, ajdar inidan chiqadi. Biroq Shamshirboz bu gal ham ajdar bilan jang qilib, engadi. Uning terisidan bir tasma kesib beliga bog‘lab oladi. Ertakdagi mazkur epizod “Uch og‘a-ini botirlar” ertagidagi voqealar bilan aynan bir xil, biroq voqealar o‘rni almashgan “Uch og‘ayini botirlar”da aka-ukalar tunni uch qismga bo‘lib, navbati bilan qo‘riqchilik qilishadi va voqealar aynan kenja botirning navbatchiligi vaqtida sodir bo‘ladi, ammo kenja botir bu hodisalarni akalardan sir tutadi, shunday bo‘lsa-da o‘ldirgan o‘ljalaridan nishona olib qoladi. “Shamshirboz” ertagida, akalar beparvo bo‘lish barobarida o‘z bilganidan qolmaydigan o‘jar yigitlar. Faqat kenja o‘g‘il ota so‘ziga sobit va hushyor. Yo‘ldagi xatarlarda ham farq mavjud ajdar “Uch og‘a-ini botirlar” ertagida og‘a-inilarga birinchi kechada hujum qiladi, mazkur ertakda esa ikkinchi tunda ajdar hamlasi beriladi.

Ma’lumki, xalq ijodida mazkur motiv an’anaviy bo‘lib ramziy xarakterga ega. Safarga chiqqan qahramonlar yo‘lda sinovlarga duch keladi va ularni engib, maqsadlariga erishadi. Sinovdagi ajdar – odamning nafi, sher – kibr, dev esa dunyo ma’nolarini anglatib, odamzodning ruhiy-ma’naviy olamini ifodalaydi. Bu ertakda esa kishi nafi yalmog‘iz va uning qirqta yalmog‘izvachchalariga mengzaladi, bu esa inson nafsining bir emas bir qancha ekanligi istaklari olamjahon ekanligi anglatilib, bu balodan qutilmay turib maqsadga erishishning imkoni yo‘qligi uqtiriladi. Ajdar esa bu ertakda kibr va manmanlik ifodasi uchun xizmat qiladi. Darhaqiqat insondagi kibr daxshatli kuch u ajdar misoli insonni komiga tortadi. Kenja o‘g‘il o‘zligini tanigani bois ajdarni engadi, biroq jang oson kechmaydi, uzoq olishadi. Uchinchi kecha voqeasi yana “Uch og‘a-ini botirlar” ertagidagidek qaroqchilar bilan bo‘lgan olishuv sanaladi. Mumtoz adabiyotda safardagi qahramon dev bilan olishadi va engadi. Dev doimiy dunyo timsolida beriladi, sabab devdagi kuch-qudrat doimiy hukumronlikka da’vat etadi. Xalq ertaklarida esa dunyo qirq qaroqchi timsolida beriladi. Bunda ham og‘zaki ijodning jo‘n va soddaligi namoyon bo‘ladi. Aslida dunyo odamlar bilan dunyo. Biroq ular talonchi va beshavqat. Asl maqsad uchun shu dunyodan ham voz kechmoq zarur, buning uchun kenja botir kabi mard tanti va kamtar bo‘lmoqlik joiz.

*Uchinchi kechadagi poyloqchiligida Shamshirboz qirqta qaroqchini o‘ldiradi. Qaroqchilar talon-taroj qilgan mol-dunyo bir podsholikka tegishli bo‘lib, Shamshirboz bu mol-mulkni egasiga qaytaradi. Evaziga podshoh qizini unga nikohlab bermog‘chi bo‘ladi. Boshqa ertaklarda shu o‘rinda podshoh uch qizini uch og‘a-iniga nikohlab beradi va davlatidan ham ulish ajratadi.*

“Shamshirboz” ertagida voqealarda podshohning yagona qizini katta akasiga olib berib, ikkincha akasi bilan yo‘lida davom etadi. Ular boshqa mamlakatga boradi. O‘sha mamlakat podshosining qizini shartini bajarib, va‘da qilinganidek malikaga ega bo‘ladi. Malikani o‘rtancha akasiga nikohlab beradi. Shamshirboz o‘zi yo‘lni davom ettiradi. Bir shaharga borib qoladi. U erda bir ajdarho paydo bo‘lib, shahar xalqining har kuni bir qiz va bitta qo‘yini eb ketar bo‘ladi. Bu safar navbat shahardagi oxirgi qiz, podshoning qiziga kelgan bo‘ladi. Shamshirboz qizni qutqarish maqsadida ajdar bilan ayovsiz jang qiladi. Ajdarni o‘ldirib, malikaga uylanadi. Malikaga uylanish istagida bo‘lgan vazirning o‘g‘li hiyla bilan Shamshirbozning shamshiridan ayiradi. O‘lim yoqasidagi Shamshirbozni akalari qutqaradi. Uchala aka-uka bir vaqtning o‘zida xotinlari bilan birga uylariga qaytadilar.

Ertak qahramonlarining xarakterini ko‘rsatish va voqea-hodisalarni ishonchli hamda jonli ifodalab berish maqsadida ertakchi milliy frazeologizmlardan keng foydalanadi. Keyingi o‘rinlarda “Shamshirboz” ertagida qo‘llanilgan o‘zbekcha frazeologizmlarni rus tiliga tarjima qilish jarayonidagi tarjimon mahorati masalasi haqida so‘z yuritamiz.

Ma‘lumki, maqol xalq og‘zaki ijodining eng harakatchan janri bo‘lib, folklorning boshqa janrlari tarkibida benihoya ko‘p uchraydi va estetik vazifa bajaradi. “Ertaklar ham maqollar singari didaktik xarakteri orqali maqollar bilan uzviy bog‘liqlik kasb etadi. Shunga ko‘ra, ertak va maqol shakldan ko‘ra mazmun mutanosibligiga ega” [Imomov K., 5:215]. Folklorshunoslarimiz ertaklarda badiiylik va emotsional ta‘sirchanlikni oshirish, hayotiy mazmunni singdirish, tarbiyaviy qiymatni ko‘rsatish maqsadida folklorning boshqa janrlari qatori maqollardan ham samarali foydalanilgani xususida o‘z mulohazalarini bildirganlar [Afzalov M., 1:103, Imomov K., 5:115]. Jumladan, folklorshunos K.Imomov shunday deydi: “Ertaklarda maqol fikr-mulohazalarning jonli, badiiy chiqishini ta‘minlab, ideal g‘oyani mantiqan asoslash, salbiy harakat va holatni inkor etib, ezgulikni ma‘qullash uchun ishlatiladi” [Imomov K., 5:184].

Bu haqda Y.Rahmatov shunday deydi: “Odatda maqollardagi mazmun doimiy va barqaror emas, maqollar mazmuniga singdirilgan ifoda uning qo‘llanadigan o‘rni, maqsadi, ijrochi saviyasi va dunyoqarashi asosida o‘zgaruvchan bo‘ladi. Maqollarda g‘oya ixcham shakl va chuqur mazmunda ifodalansa, bu g‘oya ertakka ko‘chganda, nihoyatda soddalashadi va tinglovchiga tushunarli tarzda bayon etiladi hamda ertak mazmunini boyitishga, ayni vaziyatda tasviriy holatni kuchaytirishga xizmat qiladi” [Rahmatov Y., 6:111]. Darhaqiqat, mazkur ertakda ham maqollar shunday vazifalar uchun xizmat qiladi.

Ertakning bir o‘rnida shunday maqol keltiriladi: “*Ey birodarlar, eskidan qolgan bir maqol bor: “O‘limning hammasi – bir o‘lim”, “Osilsang, baland dorga osilginki, oyog‘ing erga tegmasin”.* Shunda ham katta ma‘no bor, shuning uchun borsak ham, bir arkoni davlatga boraylikki, ovimiz bir baror topsin, – degandan keyin yigitlar: – Barakallo, e o‘g‘lon, haqiqatni aytding, – deb dalaga chiqdilar. [Сказки народов Евразии, 8:254-255]

Bilamizki, turg‘un birikmalar, iboralar, maqollar, matallar, hikmatli so‘zlar tarjimasi tarjima amaliyotidagi eng murakkab jarayonidan biri hisoblanadi. Chunki frazeologizmlar tarjimasi jarayonida o‘grilayotgan tilida shu turg‘un birikmalarga mos muqobil jumla topilmasligi mumkin. Binobarin, muqobili topilmagan frazeologizmni tarjima qilishda har bir tarjimon o‘zining ijodiy mahoratiga tayanishi ham tabiiy hol. A.V.Fyodorov va K.Chukovskiylar fikricha, asliyat tilidagi maqol va matallar tarjima jarayonida g‘alizlikka yo‘l qo‘yilmasdan so‘zma-so‘z tarjima qilinsa, tarjima tilida yangi maqol va matal hosil bo‘lishi va o‘zlashib ketishi mumkin [Salomov G., 7:244-245]. G‘.Salomov esa “boshqa xalqning maqol va matalini so‘zma-so‘z tarjima qilishda g‘oyat mohirlik va ehtiyotkorlik talab etiladi. Aks holda, boshqa xalqning milliy tafakkur taxlitini aynan aks ettiraman deb, maqolni quruq gapga, matalni esa suyuq birikmaga aylantirib qo‘yish hech gap emas,” – deb ta‘kidlaydi [Salomov G., 7:244]. Chunki maqol, matal va iboralar har bir millat xarakteri va milliy o‘zligini belgilovchi birliklar bo‘lib, ular tarjimasidagi ehtiyotsizlik asar badiiy qiymati tushishiga va yozuvchining asl maqsadidan uzoqlashuviga sabab bo‘lishi mumkin. Tarjimashunos olimlarning ushbu masalaga jiddiy e‘tibor berishlari bejiz emas, chunki ayrim maqol va matallar, frazeologik birikmalar so‘zma-so‘z tarjima qilinganda o‘z mohiyatini yo‘qotadi, ular zamiridagi hikmat, milliy koloritga xos bo‘lgan turfa jihatlar, asosiy va ko‘chma ma‘nolar tarjima tilida o‘z aksini to‘la topa olmaydi. Bunday paytda tarjimondan katta mahorat va har ikkala (tarjima qilinayotgan va tarjima tili) tilning nozik jihatlarigacha bilish, his qilish talab etiladi [Igamuratova D., 4:57] Shu bois tarjimon iloji boricha badiiy tafakkurini ishga solib, maqollar mazmunini matn tarkibida saqlab qolishga harakat qiladi.

*Недаром говорится: если вешаться, то на высокой виселице. Всякая смерть человеку одинакова. Поэтому я предлагаю: если уж идти на разбой, то на большой разбой: ограбить шахскую казну, забрать все сокровища. Это будет настоящее дело. – Молодец, верно говоришь, приятель, – поддержали его разбойники. – Если уж упасть, так с хорошего коня.* [Сказки народов Евразии, 8:254-255]

Badiiy tarjimada bir tildagi nozik jihatlarni ikkinchi tilga o‘girish, milliy xususiyatlarni saqlash va muallif uslubini aks ettirish nihoyatda murakkab jarayon.

“*O‘limning hammasi – bir o‘lim*”, “*osilsang, baland dorga osilginki, oyog‘ing erga tegmasin*” – “*если вешаться, то на высокой виселице*”. “*Всякая смерть человеку одинакова*”. Ushbu jumlar tarjimasida M.Abduraximov sintaktik transformatsiya hodisasidan unumli foydalangan. Sintaktik transformatsiyaning asosini so‘z va iboralarning sintaktik funksiyalarini o‘zgartirishdan: so‘z va gaplar tartibini o‘zgartirish, tashlab ketish – alohida so‘zlarni jumladan chiqarib tashlash, qo‘shish – jumlag qo‘shimcha so‘zlarni kiritish, ikkita gapni bittaga birlashtirish, bitta gapni ikkiga bo‘lish, oddiy gapni murakkab, murakkab gapni oddiy bilan almashtirish kabilardan iborat. Misoldagi maqollarni rus tilidagi tarjimasida maqollar joylarini almashuvini kuzatish mumkin.

O‘zbek tilidagi “*osilsang, baland dorga osilginki, oyog‘ing erga tegmasin*”, jumlasini rus tiliga so‘zma-so‘z tarjima qilganda “*если вешаться, то на высокой виселице, чтобы ноги до земли не доставали*” ma’nosi kelib chiqadi. Ushbu maqolni rus tilida muqobili mavjud bo‘lmaganligi sababli, tarjimon uni kalka orqali “*если вешатся, то на высокой виселице*” qisqa shaklini beradi, jumlaning ikkinchi qismini berishni lozim topmaydi. Bu tarjimaga hech qanday putur etkazmaydi.

Keyingi jumladagi ona tilimizdagi “*o‘limning hammasi – bir o‘lim*” maqoliga rus tilida – “*всякая душа вкусит смерть*” ekvivalenti mavjud. Tarjimon uni “*всякая смерть человеку одинакова*” – “*inson uchun har xil o‘lim bir xil*” tarzida beradi, asliyatdagi ma’no saqlanib qolingan. Biznigcha, M.Abdurahimov tarjimada “*всякая душа вкусит смерть*” (“*xar bir jon o‘limni tatib ko‘radi*”) muqobil ibora bilan etkazganda emotsional-ekspressiv holatni yanada yorqin ifodalab bergan bo‘lardi.

Rus tilidagi tarjimada M.Abduraximov “*если уж упасть, так с хорошего коня*” (“*yuqilsang ham yaxshi otdan yiqil*”) jumlasini bilan yakunlaydi. Asliyat rus tilidagi matn bilan taqqoslaganda ikkinchisi yanada transformatsiyaga uchragani, keng berilgani ko‘rish mumkin. Yuqorida ta’kidlaganimizdek sintaktik transformatsiya kontekstdan kelib chiqib uni kengaytirish, yanada mos so‘zlarni qo‘shish vazifasini bajaradi. “Transformatsiyalar ma’lum bir sabablarga ko‘ra yuzaga kelib, tarjimaning adekvatligiga erishish uchun mo‘ljallangan” [Бархударов Л., 2:190], M.Abdurahimov ham rusiyzabon o‘quvchilariga adekvat tarjima shirali chiqish uchun, matnini yakunida frazeologizm qo‘shib, asar tilini jonlantirishga, sayqallashiga erishgan.

O‘zbek va rus ertaklarida qahramonning “*temir kovushni kiyib*” – “*надев железные башмаки*”, “*temir xassaga tayanib*” – “*взяв железный посох*”, “*qirq kechayu qirq kunduz*” – “*сорок дней и ночей*” yo‘l yurishida makon – yo‘lning olisligi va mashaqqatli ekani obrazli tasvirlanadi. “*Shamshirboz*” ertagida aka-ukalarni yo‘lga otlanib bir makonga kelishini quyidagicha tasvirlanadi:

*Yo‘l yurib, yo‘l yursa ham mo‘l yurib*, otalari aytganday kech vaqtida oldilaridan bir masjid chiqdi. [Сказки народов Евразии., 8:253]

*Долго ли коротко ли они шли*, и вот, как предсказывал отец, под вечер вышли к одной мечети. [Сказки народов Евразии., 8:253]

Abdug‘ofur Shukurov tomonidan aytilgan bu ertakda “*yo‘l yurib, yo‘l yursa ham mo‘l yurib*” epik formula bo‘lib, o‘zgarmas birikma sifatida o‘zbek xalq ertaklarida ishlatiladi. Bu formula rus xalq ertaklarida ham mavjud: “*долго ли, коротко ли они шли*”. Noaniq masofani anglatuvchi bu ibora ikkala tilda ham qahramonlarni yo‘lga chiqishi, undagi sarguzashtlari bilan bog‘liq bo‘lib manzilli yiroqligini obrazli tasvirlab beradi.

Bir tildagi frazeologizm va maqollarni ikkinchi tilga berishda tarjimon ona tili va tarjima tili frazeologiyasini yaxshi bilishi kerak. Zero, frazeologizmlarni oddiy jumalalardan farqlay olmaslik natijasida so‘zma-so‘z tarjima amalga oshirilsa, asarning asl mazmuni buziladi. Binobarin, frazeologizm va maqollar tarjimasida o‘rni bilan ekvivalent, kalka, leksik tarjima kabi turlicha usullardan foydalanish maqsadga muvofiqdir. “Shamshirboz” ertagi tarjimasida M.Abdurahimov ertakchini fikrini to‘g‘ri aks ettirib adekvat tarjimaga erishgan. Aytuvchi tomonidan qo‘llanilgan frazeologizmlar aslyatdagi ma‘noni etkazib berish uchun muqobili bilan, tarjima tiliga oddiy jumla orqali ifodalab, sintaktik transformatsiyaga xos qo‘shish, kengaytirish, tashlab ketish usullaridan foydalanib kitobxon matnni to‘la idrok etishiga erishgan.

#### ADABIYOTLAR:

1. Афзалов М. Ўзбек халқ эртақлари ҳақида. – Тошкент: Фан, 1964. – Б. 103.
2. Бархударов Л.С. Язык и перевод. – М.: Международные отношения, 1975. – С. 190.
3. Жемчужное ожерелье. Узбекские народные сказки. – Ташкент: Издательство литературы и искусства имени Гафура Гуляма. 1987. – 335 с.
4. Игамуратова Д.Ч. “Болалар саргузашт-фантастик насри ўзбекча таржималарининг ўзига хос хусусиятлари (Н.Н.Носов ва А.С.Некрасов асарлари таржималари мисолида)”: Филол. фан. б-ча фалсафа доктори (PhD) ...дисс. – Тошкент, 2021 й. – 137 б.
5. Имомов К. Ўзбек халқ насри поэтикаси. – Тошкент: Фан, 2008. – Б. 215. Б. 184.
6. Раҳматов Й. Мақол ва унинг оъзбек мумтоз адабиётидаги эволюцияси. Филол. фан. доктори (DsC) ...дисс. – Тошкент, 2023 й. – Б. 111.
7. Саломов Ғ. Тил ва таржима. – Тошкент: Фан, 1966. – Б. 244.
8. Сказки народов Евразии. “Змееборство”. Элиста: Изд-во Калм. ун-та, 2023. – 312 с. (эртақ М.Жўраева томонидан нашрга тайёрланган).
9. Шамширбоз и его волшебный меч. Жемчужное ожерелье. Узбекские народные сказки. – Ташкент: Издательство литературы и искусства имени Гафура Гуляма. 1987. – 335 с.